

## **2-maqola.**

## **«Fizika» fani Kodifikatori haqida.**

DTM ning bo‘lim boshlig‘i M. Zokirovaning Ma’rifat gazetasi muxbiriga javoblariga ko‘ra:

- Test topshiriqlari ularning mazmunini belgilovchi talablarga, me’yoriy hujjatlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi. ...Bunda, avval, har bir umumta’lim fani bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari va fanning o‘quv dasturlari asosida fan mazmuni tarkibi va abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar kodifikatori ishlab chiqiladi.... Kodifikator asosida test topshiriqlarining tuzilmasi (tafsilotlari) ishlab chiqiladi. Test topshiriqlarining tuzilmasi (tafsilotlari) test topshiriqlarini tuzish uchun asos bo‘ladi. .. Fan mazmuni tarkibiga kirmagan mavzular test topshiriqlari tuzilmasiga (tafsilotlariga) ham kiritilmaydi. Demak, fan mazmuni tarkibiga kirmagan mavzular bo‘yicha test savollari tuzilishi mumkin emas.

Ammo abituriyent nazarida, test sinovlarida, talablar kodifikatori va test topshiriqlarining tuzilmasiga kiritilmagan mavzu bo‘yicha test savollari unga tushgan deb hisoblasa, apellyatsiyaga ariza berib ushbu holatga oydinlik kiritishi mumkin.

DTM vakilasi yumshoqroq javob beribdilar. Agar abituriyent, unga, kodifikatorga kirmagan mavzu bo‘yicha savol tushganini isbotlasa, DTM mayjud qonunlarni hurmat qiluvchi tashkilot sifatida abituriyentdan kechirim so‘rashi va unga maksimal ball qo‘shib berishi kerak. Aks holda, test topshirish qoidalarini buzgan abituriyent qonun oldida qattiq javob berishini talab qilib turgan bir paytimizda ikkinchi tomon «o‘z majburiyatlarini» to‘la bajarmaganda yumshoqlik qilish adolatdan bo‘lmash.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2018- yil 1-fevraldaggi 01-42-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2018-yilda oliv ta’lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovini o‘tkazish uchun fizika fani **mazmuni tarkibi** va abituriyentlar tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar kodifikatori, - tasdiqlangan (**mazmuni tarkibi emas, mazmunining tarkibi bo‘lishi kerak. Buyruq bilan tasdiqlangan, millionlab odamlar o‘qiydigan hujjatda ham xatolik bo‘lsa-ya**). Uning 1-bo‘limi **Fizika fani bo‘yicha qabul** test sinovida tekshiriladigan **fan mazmuni tarkibi** haqida.

Fizika fanidan akademik litseylarning aniq fanlar yo‘nalishining o‘quv dasturida mavjud, ammo Kodifikatordagi fan mazmunining tarkibga kirmagan quyidagi mavzularni keltirish mumkin:

### 1.1.bo‘lim. Kinematika.

Gorizontal otilgan jismning harakati.

### 1.2.bo‘lim. Dinamika.

Vaznsizlik. Deformatsiya. Guk qonuni. Tayanchning reaksiya kuchi.

### 1.3. bo‘lim.Mexanikada saqlanish qonunlari.

Jismlarning to‘qnashuvlari. Aylanma harakat qilayotgan jismning energiyasi.

Impuls momenti va uning saqlanish qonuni.

Oddiy mexanizmlar.

### 1.4. bo‘lim. Mexanik tebranishlar va to‘lqinlar.

Garmonik tebranishlar. To‘lqinlarning interferensiysi. To‘lqinlarning difraksiysi. To‘lqinlarning qaytishi va sinishi. Gyugens prinsipi.

### 1.5. bo‘lim.Gidro va aerostatika va dinamika.

Qovushoqlik. Jismlarning suzish sharti.

### 2.1. bo‘lim.MKN asoslari.Ideal gaz holat tenglamasi.

Molekulaning xarakteristikalari va kattaligi. Ideal gaz va uning parametrlari.

Temperatura shkalalari. Molekulalararo o‘zaro ta’sir kuchlari va energiyasi.Shtern tajribasi.

### 2.2. bo‘lim.Suyuqliklar va qattiq jismlar.

Real gaz. Real gazning holat tenglamasi.Qattiq jismlarning erishi va qotishi.

Faza. Fazaviy o‘tishlar.

### 2.3. bo‘lim. Termodinamika asoslari

Yoqilg‘ining solishtirma yonish issiqligi.

### 3.1. bo‘lim.Elektrostatika

Elektr zaryadi va uning saqlanish qonuni. Elektr maydon kuchlanganligi va u uchun superpozitsiya prinsipi. Dipol momenti. Ostrogradskiy –Gayss teoremasi. Kondensatorlar va ularning sig‘imlari. Kondensatorlarni ularash.

### 3.2. bo‘lim. Doimiy tok qonunlari. (Doimiy tok emas “o‘zgarmas tok” deb yozish kerak).

Kuchlanish. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni. Volt-amper xarakteristikasi. Qarshiliklarni ularash.

### 3.3. bo‘lim. Turli muhitlarda elektr toki.

Chiqish ishi. Kontakt potensiallar farqi. Plazma. Elektrolizning texnikada qo‘llanilishi. Om qonuning differensial shakli.

### 3.4. bo‘lim. Magnit maydon. Elektromagnit induksiya.

Magnit maydon kuchlanganligi. Bio-Savar-Laplas qonuni. Parallel toklarning o‘zaro ta’siri. Xoll effekti. Yerning magnitosferasi.

### 3.5. bo‘lim. Elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlar.

Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi. O‘zgaruvchan elektr maydon bilan (uyurmali elektr maydon) o‘zgaruvchan magnit maydon orasidagi bog‘lanish. Ko‘zgular. Optik tasvir. Tasvir yasash. Linzalar. Yupqa linza formulasi. Ko‘z.

### 4.1. bo‘lim. Geometrik va to‘lqinli optika

Yorug‘likning qutblanishi. Rentgen nurlari.  $\gamma$  – nurlar. Lui de Broyl gipotezasi. Zarralarning to‘lqin xossalari.

### 4.2. bo‘lim. Kvant optikasi elementlari. Atom fizikasi.

Kvant mexanikasining paydo bo‘lishi. Fotonlar. Kvant mexanikasi elementlari. Yorug‘likning kimyoviy ta’siri. Atom modellari. Vodorod atomi spektrlari. Yorug‘likning bosimi.

### 4.3. bo‘lim. Yadro fizikasi va elementlar zarralar.

Atom yadrosining solishtirma bog‘lanish energiyasi. Yadro kuchlari.

- Agar test topshiriqlari (tuzilmasi) kodifikatordagi fan mazmuning tarkibiga kiruvchi mavzular bo‘yicha tuzilsa, nega ular hozirgacha o‘qituvchilar va abituriyentlarni xabardor qilish uchun ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinmagan?

- Nima uchun «Fizika» fani **mazmuni tarkibi**, akademik litseylar va umumta’lim muassasalarining dasturlari bilan bir xil emas?

- Agar, «fan mazmuni tarkibiga kirmagan mavzular bo‘yicha test savollari tuzilishi mumkin emas» (M. Zokirova)-bo‘lsa nega bunday mavzulardagi testlardan 2018-yil bakalavriatiga qabul test sinovlarida foydalanilgan.?

Ular hatto biz birinchi maqolada muhokama qilgan Axborotnomadagi topshiriqlar ichida ham bor. Masalan: kondensatorlarni ularash (57,58,59,60,61,62), Om qonuning differensial shakli (67,68). De – Broyl gipotezasi (109,110) va hakozolar.

DTM vakilasiga ko‘ra aynan shu topshiriqlar tushgan abituriyentlar, murojoat qilib, o‘z huquqlarini tiklashlari mumkin. Demak, ular o‘zgalarning xatolari natijasida OTM ga kirish sinovlarida kam ball to‘plib shartnoma asosida o‘qish uchun ortiqcha to‘lagan mablag‘larini qaytarib olishlari ham mumkin. Qolaversa, bu ularning principial pozitsiyalari bo‘lishi kerak. Davlat fuqarolarga o‘z manfaatlarini himoya qilishlarini ta’minlaydigan huquqiy mexanizmni yaratishi mumkin. Lekin fuqaro passiv bo‘lsa, hech narsa o‘zgarmaydi. Jamiyat o‘zgarishi uchun fuqarolar faol bo‘lishlari lozim. Bu Prezidentimizning olib borayotgan oshkoraliq siyosatlarining talabidir.

**Abduqahhor G‘aniyev,  
fizika-matematika fanlari nomzodi,dotsent.**

[fizika.1011@mail.ru](mailto:fizika.1011@mail.ru)

@yangifizika  
teleq.913218618.